XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-12-82, (+99876) 224-12-96

2023 - yil 7 - yanvar VI-56-2-8-121-K/23 Termiz shahar hokimligi

Termiz shahrida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 9-dekabrdagi 06/04-34/4103-sonli hamda shahar soliq inspeksiya boshlig‘i birinchi o‘rinbosarining 2022-yil 22-dekabrdagi 19/6-14995–sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekistan Respublikasi Soliq kodeksining 429, 437-moddalariga asosan Termiz shahrida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan Termiz shahar Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i S.Muxamadiyevning bergan hisobotini tinglab, bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Termiz shahar davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i S.Muxamadiyevning O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429, 437-moddalariga asosan Termiz shahrida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Termiz shahridagi mahalla va qishloq fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Termiz shahar Moliya bo‘limi (A.Safarqulov), shahar Davlat soliq inspeksiyasi (S.Muxamadiyev)ga:

- yer solig‘ining amaldagi stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mahalla kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i

stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan Surxondaryo televideniyesi bilan hamkorlikda press-klublar va chiqishlarni amalga oshirish va televideniye orqali ommaga taqdim etish;

- belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

- elektr uzatish liniyalari, umumdavlat aloqa liniyalari, umumiy foydalanishdagi temir yo‘llar, elektr ta’minoti qurilmalari, magistral neft va gaz quvurlari hamda shunga o‘xshash inshootlar band etgan yerlar uchun o‘rtacha soliq stavkasi asosida yer uchastkasi joylashgan joydagi soliq organlari tomonidan belgilanishi va 2023-yil 5-yanvargacha soliq to‘lovchilarga yetkazilishini ta’minlash;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

- yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlar to‘g‘risida xalq deputatlari shahar Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi Axborot xizmati (O.Xudoyqulov) va “Termiz oqshomi” gazetasi tahririyati (A.Saidmalikov)ga mazkur qarorni ijtimoiy tarmoqlar hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga yoritilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror bajarilishini shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A.Bo‘riyev hamda nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi X.Fayzullayev zimmasiga yuklansin.

6. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **O‘.I.To‘rayev**

Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-56-2-8-121-K/23-son qaroriga
1-ilova

Termiz shahridagi mahalla va qishloq fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

2023-yil

№	Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi	
		Koeffitsiyent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)	Koeffitsiyent miqdori	Soliq summasi (1 kv.metr uchun, so‘mda)
1	Abdulla Avloniy MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31
2	Abdurahmon Jomiy MFY	0,90	42 412 500,00	0,70	277,65
3	Alisher Navoiy MFY	0,80	37 700 000,00	0,70	277,65
4	Alpomish MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31
5	Amu sohillari MFY	0,85	40 056 250,00	0,70	277,65
6	Baynalmilal MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31
7	Bog‘zor MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31
8	Bog‘ishamol MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31

9	Bo‘ston MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31
10	Gulira‘no MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31
11	Guliston MFY	1,00	47 125 000,00	0,70	277,65
12	Do‘stlik MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31
13	Jayxun MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31
14	Juyjangal MFY	0,80	37 700 000,00	0,70	277,65
15	Kattabog‘ MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31
16	Kokildorota MFY	0,80	37 700 000,00	0,70	277,65
17	Majnuntol MFY	0,85	40 056 250,00	0,70	277,65
18	Manguzar MFY	0,90	42 412 500,00	0,70	277,65
19	Ma‘rifat MFY	1,00	47 125 000,00	0,70	277,65
20	Mehrobod MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31
21	Navro‘z MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31
22	Namuna MFY	0,80	37 700 000,00	0,70	277,65
23	Nurli kelajak MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31
24	Pattakesar MFY	0,80	37 700 000,00	0,70	277,65
25	Saxovat MFY	0,90	42 412 500,00	0,80	317,31
26	Surxon sohili MFY	0,80	37 700 000,00	0,70	277,65
27	Temiryo‘lchi MFY	0,90	42 412 500,00	0,70	277,65
28	Tinchlik MFY	0,90	42 412 500,00	0,80	317,31
29	Tuproqqo‘rg‘on MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31
30	Turon MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31

31	O‘zbekiston MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31
32	Farhod MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31
33	Chegara MFY	0,90	42 412 500,00	0,70	277,65
34	Shifokor MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31
35	Shodlik MFY	0,80	37 700 000,00	0,80	317,31
36	Eskishahar MFY	0,90	42 412 500,00	0,70	277,65
37	Yulduz MFY	1,00	47 125 000,00	0,80	317,31